

16-01/16  
15.02.2024 y.



“TASDIQLAYMAN”  
Viloyat hokimi

E. Turdimov

2024-yil 15-fevral

Viloyat hokimligida o‘tkazilgan muhokama

BAYONI

Samarqand shahri

2024-yil 13-fevral

Raislik qiluvchi:

E. Turdimov – viloyat hokimi

Ishtirok etganlar:

Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, guruh rahbarlari, kotibiyat mudirlari, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklari mas’ul xodimlari hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari  
(ro‘yxat bo‘yicha).

#### KUN TARTIBI:

1. Viloyatning hududlarida Obodonlashtirish ishlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli to‘g‘risida.
2. Umumta’lim maktab o‘quvchilarining darslarga qatnashish holati bo‘yicha
3. Boshqa masalalar.

#### 1-masala

(Turdimov, Shukurov, shahar va tuman hokimlari, Turdimov)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig‘ilish **qaror qiladi:**

1. Viloyatning hududlarida Obodonlashtirish ishlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli to‘g‘risidagi viloyat hokimi E. Turdimovning topshiriqlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarga:

tuman va shaharlar hokimlari hududlardagi umumiy ovqatlanish joylari atrofi va yo‘l bo‘ylari chiqindilar bilan to‘lganligi, irrigatsiya ariqlari qurilish va maishiy chiqindilar hamda oqova suvlari bilan to‘lib toshganligi, konteynerlardagi chiqindilar o‘z vaqtida olib ketilmayotganligi;

viloyat hokimining 2022-yil 26-noyabrdagi 453-7-0-Q/22-son qarorida berilgan topshiriqlar ijrosi ta'minlanmayotganligi, ya'ni hokimlarning sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiya va kommunal xo'jalik masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, Obodonlashtirish boshqarmalarida ajratilgan xizmat xonalarida faoliyat olib bormayotganligi;

tuman va shaharlar hokimlari har haftada bir marta Obodonlashtirish bo'limlari, "Maroqandobod" DUK, "Toza hudud" DUKlarga shaxsan tshrif buyurgan holda ularning faoliyatiga amaliy yordam ko'rsatish va mavjud muammolarini hal etish lozimligi yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlamaganligi;

viloyat Ekalogiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i K.Shermatov 2023-yilda sanitar tozalash xizmatlari ko'rsatishni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish yuzasidan e'lon berilmaganligi sababli rasman ogoxlantirilsin.

**3.** Jomboy (**Q.Sobirov**), Bulung'ur (**S.Astanov**), Ishtixon (**F.Ro'ziyev**), Oqdaryo (**Sh.Qudratov**), Toyloq (**B.Bobonazarov**), Payariq (**I.Jabborov**), Kattaqo'rg'on (**J.Nasriddinov**), Narpay (**Sh.Raxmonov**), Paxtachi (**M.Xamdamov**), Pstdarg'om (**V.Murodqobilov**) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on (**G.Alimova**) shahar hokimlari viloyat ishchi guruhi tomonidan tasvirga olingan hududlarni zudlik bilan obodonlashtirish chorasini ko'rsin.

**4.** Viloyat hokimi o'rinbosari (**A.Shukurov**) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi PQ-4845-son qaroriga asosan aholini maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazmagan tuman va shaharlar sektor rahbari hamda obodonlashtirish bo'limlari rahbarlari bilan alohida muhokama tashkil etsin.

**5.** Samarqand shahar hokimi (**F.Umarov**), "Maroqand Obod" DUK direktori (**R.To'lqinov**) **10 kun muddatda** "Maroqand Obod" DUK korxonasi tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etilishini ta'minlasin.

**6.** Viloyat hokimligi ijro-nazorati bo'limi rahbari (**Z.Raximov**) mas'ullar tomonidan "Maroqand Obod" DUK korxonasidagi aniqlangan barcha muammolarni joriy yil 1-martga qadar bartaraf etmagan taqdirda tegishli tashkilotlar ishtirokida ishchi guruh tuzib o'rganish o'tkazsin hamda o'rganish natijalari bo'yicha viloyat hokimiga axborot kiritsin.

## **2-masala**

---

*(Turdimov, Ochilov, Umarov, Boltayev, shahar va tuman hokimlari, Turdimov)*

**7.** Viloyatdagi umumta'lim maktab o'quvchilarining davomati o'tgan bir hafta davomida viloyat Milliy gvardiya hamda Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarining mas'ul xodimlari tomonidan 800 dan ortiq maktablarda o'rganish o'tkazilganda, o'rtacha davomat 86 foiz ekanligi, eng yomoni bitiruvchi

sinf o'quvchilari o'rtasida bu ko'rsatkich 57,8 foizni tashkil etayotganligi barcha sektor rahbarlari va mas'ullarga hamda viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i F.Boltayevga ko'rsatib o'tilsin.

**8.** Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi (**A.Umarov**), viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**F.Boltayev**) maktablardagi haqqoniy davomat bo'yicha, surunkali maktabga kelmaydigan o'quvchilar hamda jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan o'quvchilar bo'yicha haftaning har seshanba kuni yig'ilishga tanqidiy ma'lumotlar kiritib borsin.

**9.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**F.Boltayev**)ga:

maktablardagi yuqori sinf o'quvchilarini norasmiy sektorda qayta tayyorlov kurslariga qatnashayotganlarini maktablarga qaytarish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taklif kiritilishini;

viloyatdagi mavjud barcha maktablarda ota-onalar majlislarini tashkil etish bo'yicha tartib ishlab chiqilishini;

boshqarmaning "*Kundalik.com*" elektron platformasiga o'quvchilar davomatini haqqoniy kiritilishini;

maktablardagi o'qituvchilarning darslarga sababsiz kelmay qolish holatlarini oldini olish maqsadida har bir maktab direktorlari rasman ogohlantirilishini ta'minlasin.

**10.** "Nuroniylar" jamg'armasi viloyat bo'limi (**Sh.Negmatov**), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyati boshqarmasi (**Sh.Yuldoshev**), tumanlar va shaharlar sektor rahbarlari hamda tegishli mas'ullar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan tartib asosida maktablarda ota-onalar majlislarini o'tkazilishini ta'minlasin.

### **Boshqa masalalar**

---

(*Turdimov, Abilov, Raxmonova, Ochilov, Anvarov, Zayniyev, shahar va tuman hokimlari, Turdimov*)

**11.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvar kungi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 92-sonli qarori ijrosi ta'minlashda sustkashlikka yo'l

qo'yayotganligi, "Yoshlar balansi" elektron platformasi ko'rsatkichlari viloyat ko'rsatkichidan ortta qolayotganligi sababli quyidagilarga:

Samarqand tumani prokurori (**U.Muxammadiyev**)ga tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari A.Mahmudovni;

Urgut tumani prokurori (**A.Valiyev**)ga tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari M.Xoliqovni qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda javobgarlik masalasini ko'rib chiqish tavsiya etilsin.

**12.** Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (**X.To'xtayev**) "Yoshlar balansi" elektron platformasi ko'rsatkichlari bo'yicha eng oxirgi o'rinlarda turgan Urgut tumanidan 5 ta, Samarqand tumanidan 3 ta yoshlar yetakchilarini lavozimiga loyqlik masalasini ko'rib chiqsin.

**13.** Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (**B.Mirzayev**) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda istalmagan homiladorlikning oldini olish va tug'uruqlar orasidagi intervalni saqlash maqsadida kerakli tibbiyot vositalarni xarid qilinishini ta'minlasin.

**14.** Viloyat hokimining o'rinbosari (**Z.Raxmanova**):

bir kun muddatda onalar o'limi bo'yicha haqiqiy holatni to'liq o'rganish uchun tegishli tashkilotlar ishtirokida ishchi guruhi tuzilishini;

ishchi guruhi tomonidan bajarilgan ishlar yuzasidan doimiy monitoring o'rnatib, natijasi bo'yicha viloyat hokimiga axborot kiritib borilishini ta'minlasin.

**15.** Viloyat prokurori o'rinbosari (**D.Saidqulov**)ga Pstdarg'om, Paxtachi, Urgut, Payariq, Ishtixon, Narpay, Toyloq tumanlari hamda Samarqand shaharida onalar o'limi yuzasidan har bitta holat bo'yicha tahliliy o'rganishlar o'tkazib, bunday holatlarni oldini olish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish tavsiya etiladi.

**16.** Viloyat hokimining o'rinbosari (**Z.Raxmanova**), viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (**S.Zayniyev**), O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyat boshqarmasi (**Sh.Yuldashev**), Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat hududiy boshqarmasi (**X.Nazarov**) hamda tuman (shahar) hokimliklari:

**o'n besh kun muddatda** ishchi guruhi tomonidan o'rganilgan onalar va go'daklar o'limi bo'yicha har bir holatni tahlil qilib, bunday holatlarning oldini olish choralarni ko'rish;

har bir hududda tug'ishga moneligi bor, sog'ligida nuqsoni bo'lgan va kam qon ayollarning ro'yxatlarini shakllantirish va yakka tartibda ular bilan reproduktiv salomatlik bo'yicha suhbatlar o'tkazish;

hamkor tashkilotlar bilan birgalikda joylarda, mahallalarda "Sog'lom ona-sog'lom bola" shiori ostida erta tug'uruq va tug'uruqlar oralig'idagi masofa yuzasidan tibbiy profilaktik suhbatlarni o'tkazish;

har 6 oyda tug‘ish yoshidagi ayollarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish choralari ko‘rilsin.

**17.** Viloyat Soliq boshqarmasi boshlig‘i (**S.Eshmatov**), shahar va tumanlar hokimliklari, mahallalardagi hokim yordamchilari, soliq inspektorlari bilan birgalikda barcha ko‘rsatkichlarni to‘liq aks ettirgan holda statistika va soliq hisobotlarini o‘z muddatida sifatli topshirtirish choralari ko‘rsin.

**18.** Viloyat Statistika boshqarmasi (**Sh.Abdiyev**) kichik biznes subyektlari tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni qamrovi bo‘yicha sohalar va hokim yordamchilari kesimida kunlik axborotni viloyat hokimligi va sektor rahbarlariga kiritib borsin.

**19.** Viloyat hokimining maslahatchisi (**A.Anvarov**), Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i (**D.Xo‘jamberdiyev**), tuman shahar hokimlari:

yangi tadbirkorlik sub’ektlarini IT xizmatlari sohasiga rezidentlikga ariza topshirtirish hamda yangi eksportyor korxonalarini keng jalb qilish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish;

shahar va tuman hokimlari va soliq idoralari bilan hamkorlikda viloyatda IT faoliyati bilan shug‘ullanayotgan norasmiy korxonalarini faoliyatini qonuniylashtirish choralari ko‘rsin.

**20.** Mazkur yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Yig‘ilish bayonini  
rasmiylashtirdi**



**E.Jonibekov**